

**INNOVATSION FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqatchisi

e-mail: mirkaajtmuratova@gmail.com

Telefon: [+ 99 891 268 86 68](tel:+998912688668)

Annotatsiya: Maqolada innovatsion faoliyatning mazmuni, uni shakllantirish va rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Ilmiy-tadqiqot ishlari, moliyalashtirish, infratuzilma va kadrlar tayyorlashning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikka ta'siri ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyat, rivojlantirish usullari, ilmiy tadqiqotlar, texnologiya transferi, moliyalashtirish, raqobatbardoshlik, infratuzilma.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida innovatsiyalarning roli tobora oshib bormoqda. Innovatsion faoliyat jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat, ta'lim va tibbiyot sohalarida innovatsiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, innovatsion faoliyatni shakllantirish va uni rivojlantirish usullarini o'rghanish zamonaviy davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda innovatsiya sohasida izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2018 yil «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilindi va shu munosabat bilan Innovatsiyani rivojlantirish vazirligi tashkil etildi. Sohaga oid qonunchilik yanada takomillashib, bir qator innovatsiyalar va ilmiy-texnik faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. 2020 yilda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim hujjat «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. [1] «2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Prezident Farmoni va boshqa hujjatlar imzolandi.[2]

Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsion faoliyat” tushunchasiga ta‘rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo‘la boshladi. Yozef Shumpeter (Joseph Schumpeter) innovatsiya tushunchasini ilk bor ilmiy asosda tadqiq qilib, uni "iqtisodiy taraqqiyotning ichki harakatlantiruvchi kuchi" sifatida ta‘riflagan. U innovatsiyani yangi mahsulot yaratish, yangi bozor ochish yoki yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish bilan bog‘laydi [3].

Shuningdek, taniqli iqtisodchi P.Drukerning asarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning iqtisodiy mohiyati, yangi biznesni ochish va yangi xizmatlarni ko‘rsatish yangi tovarlar ishlab chiqarish, innovatsion faoliyatni rivojlanish bosqichlari va modellari, innovatsion faoliyatni boshqarish, innovatsion tadbirkorlik faoliyatning shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-uslubiy jihatlari, innovatsiyalarni joriy qilinishi, mahsulot va texnologik innovatsiyalarni yaratish bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan [4].

Umumlashtirib aytganda, innovatsion faoliyat deb yangi g‘oyalar, ilmiy tadqiqotlar, ilg‘or texnologiyalar va ishlab chiqarish usullarini yaratish va amaliyotga tatbiq qilish jarayoniga aytildi. Bu jarayon nafaqat yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, balki mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga ham xizmat qiladi.

Innovatsiyaning ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshiradi, yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi, korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlaydi, ijtimoiy taraqqiyot va farovonlikka hissa qo‘sadi.

Innovatsion faoliyatni shakllantirish usullari sifatida kuyidagilarni keltirish mumkin:

- Ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish: Ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ishlar innovatsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Korxonalar va muassasalar ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish orqali yangi g‘oyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

- Intellektual mulkni himoya qilish: Yangi ixtiolar va innovatsion g‘oyalarning huquqiy muhofazasi ularni iqtisodiy samaraga aylantirish uchun zarur. Patentlash va litsenziyalash jarayonlari shunga xizmat qiladi.
- Innovatsion muhit yaratish: Davlat va xususiy sektorning qo‘llab-quvvatlovi bilan yaratiladigan innovatsion ekotizimlar (texnoparklar, inkubatorlar, akseleratorlar) yangi startaplar va innovatsion loyihalarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.
- Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Innovatsiyalarga yo‘naltirilgan kadrlarni tayyorlash ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutishi zarur. Mutaxassislarning yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish usullaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu usullar yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish orqali bozor raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ilmiy-tadqiqot va texnologik yangiliklarni tatbiq qilish natijasida resurslardan samarali foydalanish ta‘minlanadi. Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish usullari kuyidagilarni keltirish mumkin:

- Innovatsiyani moliyalashtirishni kengaytirish. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari, vechur kapital, xususiy investitsiyalar va xalqaro moliya institutlari mablag‘laridan foydalanish kerak.
- Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. Texnoparklar, ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriylar tarmog‘ini kengaytirish orqali innovatsion faoliyatning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi.
- Korxona va tadbirkorlarni innovatsiyaga yo‘naltirish. Korxonalarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa iqtisodiy rag‘batlantirish choralarini orqali innovatsion faoliyatga qiziqish uyg‘otish mumkin.
- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Chet el tajribasini o‘rganish, ilmiy-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

texnik hamkorlik va qo'shma loyihalar orqali milliy innovatsion salohiyatni oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon samarali amalga oshirilishi uchun ilmiy tadqiqotlar, kadrlar tayyorlash, moliyalashtirish va infratuzilmani rivojlantirish kabi usullarni birgalikda qo'llash zarur. Shu bilan birga, davlat siyosatining qo'llab-quvvatlovi va xususiy sektorning faol ishtiroki orqali innovatsiyalarning barqaror o'sishi ta'minlanadi. Innovatsion rivojlanish orqali mamlakatlar iqtisodiy o'sishni jadallashtirishi va global raqobatda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'RQ – 630-son Qonuni. 2020 yil 24 iyun'.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF – 165-son Farmoni. 2022 yil 6 iyul'
3. Schumpeter, J.A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
4. Друкер П. Бизнес и инновации / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 350 с.